

13.00.05 – KASB-HUNAR TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI (PEDAGOGIKA FANLARI) IXTISOSLIGI BO'YICHA SAVOLLAR

I. KASBIY TA'LIMNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ-576-son Qonuni mazmuni va mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni mazmuni va mohiyati.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-son Qarori mazmuni va mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son Qarori mazmuni va mohiyati.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5140-son Qarori mazmuni va mohiyati.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5241-son Qarori mazmuni va mohiyati.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-323-son Qarori mazmuni va mohiyati.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-128-son Qarori mazmuni va mohiyati.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori mazmuni va mohiyati.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son Qarori mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalari.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalari.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son Qarori mazmuni va mohiyati.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 648-son Qarori mazmuni va mohiyati.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 836-son Qarori mazmuni va mohiyati.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yi 28-dekabrdagi “Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 900-son Qarori mazmuni va mohiyati.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-y 30-sentabrdagi “Texnikumlarda xorijiy ta’lim tashkilotlari ishtirokida qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 614-son Qarori mazmuni va mohiyati.

II. KASBIY TA'LIM TIZIMI, DAVLAT SIYOSATI VA NAZARIY ASOSLARI

21. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy tamoyillari hamda ustuvor yo'nalishlari; yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etish imkoniyatlari.

22. Pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslarida maqsadli tayyorlash hamda ta'lim tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash omillari.

23. Kasbiy ta'lim tizimida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash.

24. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kasbiy malakasini "WorldSkills" standartlari asosida baholash; ishchi kasblar bo'yicha "WorldSkills Uzbekistan" musobaqalarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsadlar.

25. Kasbiy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv va pedagog kadrlari kasbiy bilim, ko'nikma hamda malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish masalalari.

26. Malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllari; malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullari hamda vebinar texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish.

27. O'zbekistonda kasb va mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy standartlar joriy etilishining ahamiyati.

28. Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

29. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida kasbiy ta'limning rivojlanishi va uning tashkiliy shakllari; ta'lim shakllari hamda bosqichlari.

30. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkir va ma'rifatparvar olimlarning kasb-hunar ta'limi haqidagi g'oyalari.

31. Kasbiy ta'limni rivojlantirish sohasida respublikamiz va xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar hamda ularning ilmiy maktablari.

32. Kasbiy ta'lim tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari, amal qilish shart-sharoitlari va rivojlantirish istiqbollari.

33. "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyilining mazmuni va mohiyati.

34. Kasbiy ta'lim dasturlarini YUNESKO tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish hamda milliy malaka tizimini joriy etishning ahamiyati.

35. Kasbiy ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorining tarkibiy tuzilishi, maqsadi, qo'llanilishi hamda undagi asosiy tushunchalar mazmuni.

III. KASBIY TA'LIM MAZMUNI, METODIKASI VA TEXNOLOGIYALARI

36. Kasbiy ta'limda ta'lim olish shakllari; boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim darajalarida ta'lim jarayonini tashkil etish.

37. Kasbiy ta'lim mazmunini belgilovchi hujjatlar: malaka talablari, o'quv rejasi, o'quv dasturi va shu kabilarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.

38. Kasbiy ta'lim tizimining metodik ta'minoti; darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.

39. Kasbiy ta'limning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro aloqadorligi.

40. Kasbiy ta'limda maxsus o'quv predmetlari bilan ishlab chiqarish ta'limining o'zaro aloqadorligini ta'minlash.

41. Kasbiy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish; dual ta'lim asosida o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotini olib borish.

42. O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimining maqsadi, tuzilishi va asosiy vazifalari.

43. Kasbiy ta'limda o'qitish shakllari, o'qitish metodlari va o'qitish vositalarining tasnifi.

44. Masofaviy ta'limning nazariy-uslubiy asoslari, didaktik tamoyillari va tashkil etish usullari.

45. Kasbiy standart tushunchasi; kasbiy standartlarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish tartibi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri.

46. Dual ta'limda o'quv jarayoni va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning mohiyati hamda bu boradagi xorijiy tajribalar.

47. Kasbiy ta'limda o'quv-uslubiy majmualar: tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar (taqvim-mavzu rejasi, ta'lim texnologiyasi, ma'ruzalar matni va shu kabilar).

48. Kasbiy ta'lim pedagogikasi va metodikasi fanining predmeti, mazmuni va vazifalari.

49. Muammoli ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari, maqsad va vazifalari hamda vositalari.

50. Kasbiy ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish; boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim darajalarida mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda bu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish masalalari.

51. Kasbiy ta'limda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, uning maqsadi hamda mohiyati.

52. Kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchilarining kasbiy kompetentligini o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida rivojlantirish.

53. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga ehtiyojni o'rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar; ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish masalalari.

54. Kasbiy ta'limda o'qitish metodikasining tarkibi va tuzilishi; umumiy hamda xususiy metodikalarning o'zaro nisbati.

55. Ishlab chiqarish ta'limining o'ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirish shart-sharoitlari. Mashq – ishlab chiqarish ta'limining asosiy metodlaridan biri sifatida.

56. Kasbiy ta'lim pedagogikasida ta'lim metodlari; o'qitishda ko'rgazmalilik; ko'rsatish va tushuntirishning uzviyligi.

57. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda baholash usullari, vositalari va mezonlari; og'zaki, yozma va test nazorati shakllarining afzalliklari hamda kamchiliklari.

58. Ma'ruza, seminar, muammoli, modulli, didaktik-o'yinli, laboratoriya darslari va amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari.

59. Mantiqiy metodlar: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez.

60. Nazariy va amaliy o'qitishning metodologik asoslari; ishlab chiqarish ta'limining tamoyillari va metodlari.

61. Mehnat ta'limi bilan kasbiy ta'lim izchilligini ta'minlashning ilmiy asoslari.

62. Pedagogik tadqiqotlarda matematik modellashtirishning mohiyati, imkoniyatlari va qo'llanish chegaralari.

63. Bir akademik soatlik nazariy va amaliy dars rejasini tuzish hamda uni tahlil qilish.

64. Ikki akademik soatlik nazariy va to'rt akademik soatlik amaliy dars rejasini tuzish hamda uni tahlil qilish.

65. "Ko'nikma", "kvalifikatsiya", "kompetensiya" va "kasbiy kompetensiya" tushunchalarining mazmuni hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

66. Darslarning turlari, ko'rinishlari va tuzilishi; zamonaviy hamda an'anaviy darslarning o'ziga xos xususiyatlari.

67. Dasturiy o'quv materialini o'quvchilar o'zlashtira olmasligining sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etish yo'llari.

68. Kasbiy ta'lim metodlari va yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi.

69. Kasbiy pedagogikada tadqiqot usullari va ularni qo'llash tajribasi.

70. O'qitishda texnik vositalardan foydalanish; texnik vositalarning turlari va tavsifi.

71. Kompyuterli va matematik modellashtirish asoslari hamda uning o'ziga xosligi; matematik modellashtirishning asosiy tamoyillari va hisoblashda loyihalash usullari.

72. Kasbiy ta'limda matematik metodlar hamda yangi innovatsion axborot texnologiyalarini qo'llash.

73. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.

74. Mehnatni ilmiy tashkil etish va ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslari.
75. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi tuzilmasi: motivatsion, kognitiv, operatsional va refleksiv tarkibiy qismlar.
76. Boshlang'ich kasbiy ta'lim darajasida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuv.
77. Kasbiy ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlari.
78. Ilmiy daraja olish tartibi, unga qo'yiladigan talablar hamda uning ta'lim tizimi ilmiy salohiyatini oshirishdagi ahamiyati.
79. Kasbiy ta'lim pedagogikasida o'qitish metodlarini tanlash mezonlari va ularning samaradorligini baholash.
80. Kasbga yo'naltirib o'qitishda elektron ta'lim resurslarini loyihalash; elektron ta'lim resurslarining o'quv jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati.
81. Kasbiy ta'limni tadqiq etish metodlari (pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; kuzatish; pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish; yozma so'rovnomalar; ekspert baholash): mohiyati, maqsadi va vazifalari.
82. Hamkorlik pedagogikasi va uning vositasida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish.
83. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini tubdan yangilash: hozirgi holat, tavsiyalar va tanqidiy baho.
84. Kasbiy ta'lim tizimiga raqamli ta'lim kontentini joriy etish; pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish masalalari.
85. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarining maqsadi, mazmuni; ularni tashkil etish hamda o'tkazishning shart-sharoitlari va muammolari.
86. Pedagogik mahoratni oshirishning shakl va metodlari.
87. "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida boshqaruv hamda pedagog kadrlarning malakasini uzluksiz oshirish.
88. Boshqaruv va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati natijalarini baholashda elektron portfolio tizimining ahamiyati.
89. Ishlab chiqarish amaliyoti natijalarini baholash: mezonlari, ko'rsatkichlari va unda ish beruvchilarning ishtiroki.
90. Kasbiy ta'lim tashkiloti o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish.
91. Milliy malaka tizimini tashkil etish orqali mehnat bozori bilan ta'lim integratsiyasini ta'minlash.
92. Mehnat bozorida kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash hamda "Buyurtmalar portfeli"ni shakllantirish.

93. Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish; ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka tashkil etish orqali ularning malakasini oshirish.

IV. ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ILMIY FAOLIYAT

94. Ilmiy maqolani shakllantirishda quyidagilarni izohlang: maqola mavzusi, annotatsiya, tayanch so'z va iboralar, kirish, mavzuga oid adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, xulosa hamda takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

95. Kasbiy ta'limning hozirgi davrdagi asosiy muammolari hamda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari.

96. Scopus, Science Direct, Web of Science kabi xalqaro ilmiy bazalarda maqola chop etishning ahamiyati, unga qo'yiladigan talablar va rasmiylashtirish tartibi. Xirsh indeksi (h-indeks) hamda uning ilmiy faoliyat samaradorligini baholashdagi o'rni.

97. Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda quyidagilarni izohlang: tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.

98. Ilm-fan sohasidagi muammolar; ilmiy tadqiqot natijalari va texnologik ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish masalalari.

99. Kasbiy ta'lim o'qituvchilarini innovatsion ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash.

100. Ilmiy tadqiqotlarni olib borishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

101. Nazariya ilmiy izlanish jarayoni va natijasi sifatida.

102. Kasbiy ta'lim metodikasi fanini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarning o'rni.

103. Iqtisodiyotning dolzarb muammolarini hal etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni tashkil etish; ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash muammolarini hal etishga qaratilgan fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish masalalari.

104. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amaliy hamda innovatsion loyihalar tanlovlari: shartlari, bosqichlari va ekspertizadan o'tkazish tartibi.

105. Ilmiy tadqiqot texnologiyasi; ilmiy tadqiqotda metodologiya va metodlar; gipoteza hamda uning tadqiqot jarayonidagi roli.

106. Ilm-fan va ilmiy faoliyatga xorijiy donor tashkilotlarning grantlari, texnik ko'mak va boshqa mablag'larini jalb etish; innovatsion ishlanmalar hamda startap loyihalarini tashkil etish.

107. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar.